

Filologiya va san'at fakulteti o'zbek tili

ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Raximova Iroda

OGAHIY IJODIDA MUAMMO JANRINING O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammadrizo Ogahiyning “Ta’viz ul - oshiqin” devoni tarkibidagi “Olloh”, “Odam”, “Nuh” va “Xon” ismlari yashiringan muammo janriga oid she’rlari tahlilga tortiladi. Shuningdek, muammo janrining tarixi hamda turkiy adabiyotda bu janrining shakllanishida shoirning ustozlar an'analarining munosib davomchisi ekanligiga diqqat qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Muammo janri, ism moddasi, muammo hal(l)i, san’at, variantlilik, intiqod, tas’hif, qalb, muammonavis.

Rakhimova Iroda

Urgench State University

Faculty of Philology and Arts

Uzbek language education of the student of sophomore

THE ROLE OF THE PROBLEM GENRE IN OGAHI'S CREATION

Abstract: In this article, Muhammad Reza Ogahi's poems of the “Ta’viz ul-ashiqin” divan, in which the names “Allah”, “Adam”, “Noah” and “Khan” are hidden, are analyzed. Also, attention is paid to the history of the problem genre and the fact that the poet is a worthy follower of the traditions of the masters in the formation of that genre in Turkish literature.

Keywords: Problem genre, the component of the name, problem solution, art, variation, intiqod, tas'hif, qalb, muammonavis.

O‘zbek mumtoz adabiyotida ko‘hna Sharq adabiyotida bo‘lganidek, ilm va so‘z san’ati toliblari tafakkuri, zakovatini shakllantirish hamda yuksaltirishda muammo janri muhim rol o‘ynaydi.

Muammo so‘zining lug‘aviy ma’nosi arab tilidagi “a’mo”, ya’ni “ko‘r” so‘zidan olingan bo‘lib, “ko‘r qilingan”, “berkitilgan”, “yashiringan” degan ma’nolarni anglatadi. “Muammo Sharq adabiyoti, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotida muayyan kichik janrdagi she’rda yashiringan nomni topish bilan bog‘liq. Muammoda yashiringan fikr mantiqan she’r mavzusiga to‘g‘ri kelishi va nazarda tutilgan muayyan fikr, voqeа - hodisa yoki shaxs faoliyati bilan bog‘liq fakt bilan aloqador bo‘lishi kerak. Unda ishora muhim rol o‘ynaydi va ishora etilgan so‘z “**ism moddasi**” deb yuritiladi, muammoni yechish yoki oddiy qilib aytganda topish – “**hal(l)**” , ya’ni “masalani hal qilish” tushunchasi bilan ifodalanadi”¹.

“Muammo mumtoz adabiyotdagi hajm jihatdan kichik janrlardan biri. Muammoni g‘azal, qit’a, hatto qasida janrlari ko‘rinishida ham yozganlar. Lekin muammoning asosiy qismi bir bayt, ya’ni ikki misra, ba’zan ikki bayt hajmiga teng bo‘ladi. Ana shu hajmda biror nomni badiiy estetik zavq bera olish darajasida yashirib ayta olsa, ijodkor o‘z topqirligi, mohirligini namoyon qila oladi. Muammo dastlab arab adabiyotida X-XI asrlarda ko‘zga tashlana boshlagan bo‘lsa-da, fors adabiyotida XIV asrda alohida janr sifatida shakllandi”². “Muammo haqida o‘tmishda ko‘p risolalar yozilgan. Uning tarixi haqida ma’lumot beruvchi muhim manbalardan biri Sharafiddin Ali Yazdiyning “Hulali mutarraz dar fanni muammo

¹ Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti NMU, 2019. 103 - bet.

² Shodmonov N. Muammo janri va uni yechish amallari. – Qarshi, 2012. 4 - bet.

va lug‘az” (Muammo va lug‘zlar haqida ziynatli yoping‘ich) asaridir. Sharafiddin Ali Yazdiy muammo janrini “**san’at**” deb atagan. Alisher Navoiy va ko‘pgina fors shoirlari unga badiiy so‘z san’atining bir vositasi sifatida alohida e’tibor qaratganlar. Alisher Navoiy Yazdiyning risolasi bir qadar murakkab yozilganini nazarda tutib, o‘z zamondoshlarining ba’zilariga, xususan, Shamsiddin Muhammad Badaxshiy, Kamoliddin Mir Husaynga muammo xususida risola yozishni topshirgan. Abdurahmon Jomiy ham Alisher Navoiyning iltimosiga ko‘ra, “Risolai muammoi kabir” (Muammo haqida katta risola) asarini yaratgan. Ushbu risoladan so‘ng ancha tushunarli va sodda bo‘lgan ”Risolai muammoi mutavassit” (Muammo haqida o‘rtacha risola), ”Risolai muammoi sag‘ir” (Muammo haqida kichik risola), nazm yo‘lida bitilgan ”Risolai muammoi manzumi asg‘ar” (Muammo haqida kichik nazmiy risola) risolalarini ham yozib, o‘rganuvchilarga qo‘llanma sifatida taqdim etgan^{“3”}. 1392 - yilda Bade’ Tabriziy o‘zining bu fan nazariyasiga bag‘ishlangan ”Ihyo bi-ilmi-l-halli-l-muammo”(Muammo halli ilmini jonlantirish) asarini yaratishi bilan bu sohada katta taraqqiyot yo‘li boshlandi. Forsiy adabiyot bilan yaqin aloqada bo‘lgan turkiy adabiyotda ham bu janr amaliy tarzda juda tez rivojlandi.

“Turkiy adabiyotda muammo janrining mustahkam o‘rin egallashi va taraqqiyotida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Rizo Ogahiy kabi ulug‘ ijodkorlarning bu janrda yaratgan sara asarlari katta ahamiyat kasb etdi. Navoiy fors tilida 500 ga yaqin muammo yozgan bo‘lsa-da, shulardan 373 tasi bizgacha yetib kelgan. Uning turkiy tilda yozgan 52 ta muammosi “Navodir ush-shabob” devoniga kiritilgan”^{“4”}. Alisher Navoiyning muammo janri nazariyasiga bag‘ishlangan maxsus asari ham mavjud bo‘lib, fors-tojik tilida yozilgan. Asar ”Mufradot” (Muammo alifbesi) yoki ”Risolai muammo” deb ataladi. Aytish joizki, ”Mufradot” forsiy va turkiy adabiyotda yaratilgan eng mukammal asar, qo‘llanma sifatida shuhrat tutgan. Buni fors adabiyotining ulug‘ namoyandasini Abdurahmon Jomiy o‘z farzandi ta’limi uchun xuddi shu asarni tanlaganidan ham anglash

³ Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti NMU, 2019. 104 - bet.

⁴ Shodmonov N. Muammo janri va uni yechish amallari. – Qarshi, 2012. 4 - bet.

mumkin. “O‘zbek tilidagi muammogo‘ylikni Navoiydan so‘ng Zahiriddin Muhammad Bobur yanada rivojlantirishga katta hissa qo‘shti. U bu nazariya haqida maxsus risola yozmagan bo‘lsa-da, muammoning nazariy qoidalarini puxta o‘rganib, uning amaliyotdagi taraqqiyotiga o‘zining nodir va badiiy barkamol asarlari bilan o‘quvchilar diqqatini o‘ziga rom etdi. Chunki Bobur muammolari orqali zukko kitobxon estetik zavq olish bilan birga axloqiy - ta’limiy va falsafiy g‘oyalarning badiiy jihatdan yuksak namunalari bilan ham yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ladi. Bobur ham Alisher Navoiy kabi 52 ta muammo yaratgan va ularning aksariyati olimlar tomonidan tahlil qilinib yechilgan va bir necha bor nashr etilgan”⁵. XIX asrda Xorazmda yashab ijod qilgan juda ko‘p shoirlar muammo yozdilar. Bunda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi katta adabiy maktab rolini o‘ynadi. Ana shu ikki ulug‘ ijodkor an’analarini munosib davom ettirgan Muhammadrizo Ogahiyning go‘zal muammolari ham shu davr shoirlari ijodida muammo janrining keng tarqalishiga sabab bo‘lgan.

Ogahiyning g‘azal, mustahzod, muxammas va shunga o‘xshash ko‘plab janrlarda ijod qilganligi va ularda yaratilgan asarlar mazmunan boy va shaklan teranligi ta’kidlanadi. Lekin shoirning kichik janrlarda yaratgan asarlari haqida juda kam gapirilgan. Jumladan, “Ogahiy devonlari qo‘lyozmalarida mavjud 80 ta muammosidan birortasi ham hozirgacha nashr qilingan to‘plamlarida kiritilmagan edi”⁶. 1999-yil Ogahiy tavalludining 190 yilligi munosabati bilan Ogahiy ijodini keng tatbiq va targ‘ib qilish maqsadida “O‘zbekiston” nashriyotida bosilib chiqqan xorazmlik ijodkorlar tomonidan tuzilgan “Ogahiy abadiyati” nomli maqolalar to‘plamida Ogahiy nomidagi jamg‘arma raisi Komil Avaz o‘zining “Salohiyat saodati” maqolasida Ogahiyning kichik janrdagi she’rlari yosh ogahiyshunos Madina Matyoqbovaning uzoq izlanishlari bilan boyigan yangi topilmalar ham kiritilib, “Ajab ohangu navolar” to‘plami dunyoga kelganligi va Ogahiy muammolarining yechimi va tahlili jamlangan ikkinchi noyob risola – “Zehn

⁵ Matyoqbova M. Ajab ohangu navolar. – Urganch: Ogahiy, 2023. 35 - bet.

⁶ Shodmonov N. Muammo janri va uni yechish amallari. – Qarshi, 2012. 4 - bet.

ziynati” ham Madina Matyoqubova Hamidulla qizi qalamiga mansub ekanligi haqida yozadi. Demak, Ogahiyning muammo janriga mansub asarlari 1999-yildayoq o‘z tadqiqotchisini topgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib, Ogahiyning “Ta’viz ul - oshiqin” devoniga kirgan kichik janrdagi she’rlari, xususan, muqattaot (qit’alar), chistonlar, 80 ta ruboiysi, 10 ta tuyuq, 80 ta muammosi, 1 ta mulammasi, 1 ta “savol - javob, oshiq va ma’shuq” janridagi asarlari Madina Matyoqubovaning ko‘p yillik izlanishlari natijasi o‘laroq “Ajab ohangu navolar” nomi ostida qayta nashr qilindi.

“Ogahiyning “Ta’viz ul - oshiqin” devonida ijodkorning 80 ta muammoga oid she’rlari joy olgan bo‘lib, ularning barchasi fard shaklida yozilgan. Muammolarning sonidan bilish mumkinki, Ogahiy bu janrda ham ko‘p va xo‘p ijod qilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, Ogahiy muammo yaratishda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur an’analarini davom ettirish bilan birga uni yanada rivolantirishga katta ahamiyat bergen. Ijodkorning muammolarini o‘qigan kishi uni mazmunan boy va shaklan teran ekanligiga ishonch hosil qiladi. Muhimi shundaki, Ogahiy muammo janrida qalam tebratar ekan, masalaga ijodiy yondashadi, o‘ziga xos uslub tanlaydi, mazmun bilan ijodni o‘ziga xos kompozitsion qurilishdagi shaklda namoyish qilishga harakat qiladi. Shu tufayli Ogahiy muammolari boshqa salaflaridan o‘ziga xoslik jihatlari bilan ajralib turadi. Fikrimizning dalili sifatida, Ogahiyning bir guruh muammolariga e’tibor qilaylik. “Ta’viz ul - oshiqin” devonidan o‘rin olgan 80 ta muammolarning birinchi 16 tasi diqqat bilan tadqiq etilsa, ularning g‘oyaviy tuzilishi va kompozitsiyasi ijodkorning ma’lum hayotiy voqealarga bo‘lgan munosabatlarining ifodasidan, qolaversa, o‘z davri ijtimoiy hayotiga bo‘lgan falsafiy qarashlaridan iborat shaklda tuzilgan. Bu kompozitsion tuzilishdagi janrning boshlanishi deyarli barcha mumtoz asarlarda bo‘lgani kabi an’anaviy tarzda olam-u odam, butun mavjudot-u maxluqotning ijodkori va bunyodkori nomiga bo‘lgan hamdu sanolar bilan boshlanadi. Ogahiy bu mavzuga 5 ta muammo yaratib, ularning zaminiga “Olloh” so‘zini yashiradi. So‘ngra yana uchta muammo keltirilganki, ular ham Ollohning muborak sifatlari

ifodalangan nomlari bilan bog‘langan. Avval “Rahmon” keyin “Rahim” va so‘ngra yana “Rahim” ismlariga uchta muammo yaratilgan. Ogahiyning bu silsiladagi muammolarining navbatdagisi, an'anaga ko‘ra sarvari olam Muhammad (s.a.v) payg‘ambarimizning na’tlariga bag‘ishlangan muammodan iborat bo‘lib, unda “Muhammad” ismi yashiringan. Keyingi muammolar mazmunan Xorazm shohi Feruzga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning soni yettitadir. Bular: Muhammad, Rahim, Bahodir, Xon, Xallada, Mulkahu, Abadan. Shunday qilib, bu 16 ta muammo mazmunan bir yagona g‘oyaga qaratilib, ularning shakli ana shu g‘oyani kuchaytirishga qaratilgandir. Demak, ijodkor eng avval Tangriga shukrlar aytadi, so‘ngra payg‘ambarimizning ta’riflarini keltiradi, so‘ngra Xorazm shohiga madhiya o‘qib, uning saltanatiga rivoj, abadiylik tilaydi va nihoyat “Omin” muammosi orqali fotiha tortadi ⁷. Demak, ko‘rishimiz mumkinki, muammo janrining devonda joylashish tartibi ham muayyan an'anaviy qoidalar asosida shakllantirilgan. Ogahiy hazratlari ham bu tadvin qoidalariga rioya qilgan holda muammo janridagi she’rlarini o‘z devonida mukammal joylashga muvaffaq bo‘lgan.

Shuningdek, yozma adabiyotda muammo janrining shakllanishida folklor janlarining ta’siri katta ahamiyatga ega. Adabiyotda deyarli barcha janrlar dastlab og‘zaki ijod shaklida shakllangani ko‘p bor ta’kidlangan. Muammo janrining shakllanishida ham xalq og‘zaki ijodi mahsuli hisoblangan topishmoq, lug‘z(chiston), ta’rix janrlari zamin bo‘lib xizmat qilgan. Xalq og‘zaki ijodi janriga xos xususiyatlardan biri **variantlilikdir**. Masalan, bir narsa-predmet haqida bir necha topishmoqlar yuzaga kelishi mumkin. Xuddi shunday, Ogahiy muammolarini kuzatar ekanmiz, bir xil nom yashiringan bir qancha muammolari borligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, ”Ta’viz ul-oshiqin” devonida keltirilgan 1-, 2-, 3-, 4-, 5- muammolarida “Olloh”; 7-, 8-muammolarda “Rahim”; 9-, 10-, 37-muammolarda “Muhammad”; 20-, 79-muammolarda ”Ahmad”; 33-, 78-muammolarda “Muborak”; 56-, 68-muammolarda “Murod”; 58-, 65-muammolarda “Sadr”; 63-, 75- muammolarda “Ayoz” hamda 71-, 72-, 73-, 77-muammolarida

⁷ Matyoqubova M. Ajab ohangu navolar. – Urganch: Ogahiy, 2023. 35 - bet.

“Iyd” ismlari yashiringan. Bu jihat folklor va yozma adabiyot janrlarining bir-biriga ta’siri sezilarli darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Shunisi e’tiborliki, Ogahiy “Muammo” nomi yashirilgan 2 ta muammo ham yozgan. Bu Ogahiyning naqadar salohiyatl muammonavis ekanligining yana bir isboti bo‘lsa, shoir muammolarining bir nechasini amalda yechib ko‘rish orqali Ogahiy abadiyati, nozimning so‘z qo‘llash mahorati , tanlangan so‘zlarning shakl va mazmun uyg’unligini kasb etishiga guvoh bo‘lish mumkin.

Ogahiyning “Olloh” nomi yashiringan muammosi:

Noz ila bugun ul sho‘x lola sayrig‘a yurdi,

Loladin olib birni boshi uzra qistirdi.

Hall qilish: ism moddasi “lola” va “bir” so‘zlaridir. Ushbu muammo qalb qoidasining ikkinchi turi bo‘lgan “qalbi ba’z”, ya’ni so‘zning ba’zi qismlarini o‘zgartirib o‘qish usuliga ko‘ra aniqlanadi. Bunda “lola” so‘zining o‘rtasida kelgan “bir” alif olinib, mazkur so‘zning boshiga qo‘yib o‘qilsa, ”Olloh” ismi hosil bo‘ladi.

Ogahiyning “Odam” nomi yashirilgan muammosi:

Kishi topg‘ay murodini kelib har ishni qilsa o‘ng,

Fanovu faqr yo‘lida balovu dardu g‘amdin so‘ng.

Hall qilish: ism moddasi “balo”, ”dard”, ”g‘am” so‘zlaridir. Ushbu so‘zlardan keyin “so‘ng” so‘zini qo‘llash orqali intiqod (ma’lum ishoralarga ko‘ra harf saralash) qoidasiga ko‘ra mazkur so‘zlarning oxirgi harflari olinishi ta’kidlanmoqda. Shunday qilinsa, murodga yetiladi. Demak, mazkur so‘zlarning oxirgi harflari (“balo”dan – o, ”dard” dan – d, ”g‘am”dan – m harflari)ni olib, bir - biriga birlashtirsak, ”Odam” ismi kelib chiqadi.

Ogahiyning “Nuh” ismiga yozilgan muammosi:

Qildi gulgun domanim beshu

To‘kti ko‘z chun xuni dil bir.

Hall qilish: ism moddasi “ko‘z”, “xun” va “dil” so‘zlaridir. Bu muammo muammo yechishning birdaniga 3 usulini qo‘llash orqali hall qilinadi. Ya’ni dastlab intiqod (ma’lum ishoralarga ko‘ra harf saralash) qoidasiga ko‘ra “xun”ning “dili” bo‘lgan “nun” harfi olinadi, so‘ngra qalb usulining birinchi turi bo‘lgan qalbi kull (ma’lum so‘zni o‘z tartibida to‘la holda teskari o‘qish) qoidasiga ko‘ra “xun”ning teskarisi bo‘lgan “nux” so‘zi hosil bo‘ladi. Nihoyat arab tilidagi “xo” harfining ko‘zi bo‘lgan nuqtasini “to‘kti ko‘z” ishorasiga ko‘ra tas’hif (muammodagi ishoralarga ko‘ra, ism moddasi bo‘lgan so‘z harflari nuqtalarining o‘zgartirilishi, ya’ni so‘zdagi harflar nuqtalarining olib tashlanishi yoki ularga nuqtalar qo‘shilishi) qilsak, “Nuh” ismi hosil bo‘ladi. Demak, ushbu muammo birdaniga 3 ta: intiqod, qalb va tas’hif usullarini amalda tatbiq qilish orqali hall qilinadi.

Ogahiyning “Xon” ismiga yozgan muammosi:

Ey xush, ul bediliki shirin kalom,
Ul labi xandon dilin oldi tamom.

Hall qilish: ism moddasi “lab”, “xandon” va “dil” so‘zlaridir. Bu muammo intiqod (ma’lum ishoralarga ko‘ra harf saralash) qoidasiga ko‘ra, “xandon” ning “labi” so‘zning ikkala tomonidagi “xo” hamda “nun” harflarini olish kerakligiga ishora bor, shuningdek, “xandon” so‘zining “dili”ni, ya’ni o‘rtasidagi “nun” va “dol” harflarini “tamom” so‘zining ishorasiga asosan olib tashlab, qolgan “xo” hamda “nun” harflarini birlashtirsak, “Xon” so‘zi hosil bo‘ladi. Bu muammoda Ogahiy ishoralarni shunday sinchkovlik bilan tanlaganki, shoir mahoratiga tan bermaslikning iloji yo‘q. Ya’ni “ul labi xandon” “dili”ni olgandan so‘ng oshiq yorini “bedil” deb ataganini Ogahiy ishoradagi “dilin oldi tamom” bilan uyg‘unlashtirgan holda bir-biri bilan ham mazmunan, ham shaklan bog‘lay olgan, natijada, shunday go‘zal muammo dunyoga kelgan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Ogahiy mazkur muammolarida ko‘proq **intiqod** (ma’lum ishoralarga ko‘ra harf saralash), **tas’hif** (harflarning nuqtalariga o‘zgartirish kiritish), **qalb** (so‘zning butunlay yoki qisman o‘zgartirgan holda

teskari o‘qilishi) va boshqa amallarni ustalik bilan ishlatib, o‘zining fikr va qarashlarini ifoda eta olgan.

Xulosa o‘rnida, biz Ogahiyni nafaqat buyuk shoir, muarrix, mutarjim, balki mohir **muammonavis** deya bemalol ayta olamiz. Haqiqatan, Ogahiy Abdulla Oripov ta’biri bilan aytganda, o‘zbek adabiyotini buyuk Navoiydan keyin yangi, yuqori pog‘onaga ko‘targan ulug‘ shoir va allomadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avazov K. Salohiyat saodati. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
2. Matyoqbova M. Ajab ohangu navolar. – Urganch: Ogahiy, 2023. – 156 b.
3. Rajabova M. Navoiy muammolari badiiy takomilida folklorning ta’siri. – Toshkent: Turon - Iqbol, 2021.
4. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. – Toshkent: Navoiy universiteti NMU, 2019. – 128 b.
5. Shodmonov N. Muammo janri va uni yechish amallari. – Qarshi, 2012. – 27 b.